

CHAQMOQ VA QUYOSH

Ertak

Birdan falakda oppoq bulutlarni bag'ri qora dog'larga to'lgan bulutlar iskanjaga ola boshlabdi. Oq bulutlar ham bo'sh kelmay, ulardan o'zlarini himoya qilishga o'tibdilar. Zaminu falakni gumburlagan ovozlar tutibdi. Ahyon-ahyonda qilichdan ham keskir yashinlar goh u burchakda, goh bu burchakda paydo bo'lib, olamga dahshat sola boshlabdi. Bu ham yetmay, sharros quygan yomg'irlar orzumand g'unchalarni rosa savalabdi, shamol esa ularning yaproqlarini yulqib otibdi. Keng yaylovda yayrab yurgan qo'y-qo'zilar, mehnatkash chumolilar, beozor qushlar - barcha-barcha jonzodlar bundan ozor chekib, o'zlarini panaga olibdilar. Bularning bari falakning tinchini buzgan, o'zini nafaqat osmonlar, balki butun borliq hukmdori deb bilgan Chaqmoqning qilmishi edi. Chaqmoq zamin uzra guldirak solib, qah-qah otib beo'xshov kular ekan:

- Ko'rib qo'ying mening qudratimni. Men buyukman - yagonaman. Siz maqtagan Quyosh nima bo'libdi. U faqat kunduzi nur socha oladi. U men kabi shiddatli emas. Mening nurlarim hattoki tunni ham yoritadi, - deya yerga yashin yo'llabdi. Yashin esa bir lip etib yonibdi-da, yerdagi daraxtlarning kulini ko'kka sovuribdi. Bechora olmaxonlar uysiz qolibdi va chaqmoqning bu ishidan qattiq ranjibdilar.

Shunda borliqdagi eng kamtar, barcha-barchani o'z bag'riga sig'dirguvchi, ammo buning evaziga ulardan hech narsa talab qilmaydigan saxovatli Yer ohista gap boshlabdi:

- Ey chaqmoq. Sening qudrating ko'p. Haqiqatan ham, sen borliqning bir mo'jizasisan. Faqat qudratingga ishonib, hamma yoqni vayron qilma. Sen tufayli butun o'simliklar, jonzodlar ozor chekmoqda. Har bir ishning ham o'z me'yori, haddi, chegarasi bor. Bas qil bu ishingni. Endi o'mingni mayin shamollarga, sokin lahzalarga, mehribon Quyoshga bo'shatib ber, - debdi.

Chaqmoq Erni pisand qilmay, o'z ishida davom etibdi:

- Senmi hali menga aql o'rgatadigan?! Axir o'zingga bir boq. Sen qanday past, tubandasan, men esa qanday yuksakdaman. Hozir bor kuchimni yig'ib, senga shunday chaqinlarimni yo'llayki, sen zarblarimdan parcha-parcha bo'lib ketgin.

Chaqmoq shunday deb, bor kuchini yig'ibdi va butun vujudi bilan o'zini Yering ko'ksiga uribdi. Yer unga ko'ksini qalqon qilibdi. Birdan gumburlagan ovoz chiqib, zaminu falak larzaga kelibdi. Xaloskor Yer chaqmoqni bag'riga singdirib, yutib yuboribdi. Undan asar ham qolmabdi. Yomg'iru jalalar tinibdi. Shu vaqt hammayoq birdan sokin bo'lib qolibdi. Asta mayin yel esib, chechaklar ohista bosh ko'taribdilar va jonivorlar inlaridan mo'ralay boshlabdilar.

Shunda mehribon Quyosh falak uzra ko'tarilib, do'sti - saxovatli Yerga tashakkur aytibdi va butun olamni o'zining iliq, yoqimli tafti bilan erkalay boshlabdi. Quyosh nurlari barcha yoqqa birdek hayot bag'ishlabdi. G'unchalar bir- biridan go'zal bo'lib ochilib, ming xil rangda tovlanibdi va ifor sohibdi. Qo'yu echkilar jajji bolalarini bag'rilariga olib, quyoshning nurlarida yonboshlab tovlanishibdi. Muzlab joyida qotib qolgan jilg'alar muzlaridan tushib, qiqirlashganicha o'z yo'llarida yana shodon chopib qolishibdi. Quyosh nurlari nafis kapalaklarning naqshinkor qanotlarida jilva qilibdi.

Ha, ularning barchalari Chaqmoqdan ranjigan bo'lib, mehribon Quyoshning g'amxo'rligidan, saxovatli Yerning himmatidan g'oyat shod edilar. Shuning uchun ham, majnuntollar Yerga tinmay ta'zim qilishadi, Kungaboqarlar esa har doim Quyoshni olqishlab, unga tabassum ila boqib turadilar.

Darvoqe, Bulbulning sayrashini eshityapsizmi?! U ham quyoshni mehribon, Yerni esa jonajon, deb kuylamoqda. Balki unga siz ham jo'r bo'larsiz?!